Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

O‘ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR ROLINI OSHIRISH ORQALI INVESTITSIYA MUHITINING JOZIBADORLIGINI KUCHAYTIRISH

NARZULLAYEVA XILOLA ABDUKOMILOVNA
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi
E-mail: xilolaabdukomilovna@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6832-8792

Annotatsiya. O‘zbekiston moliya bozorining barqaror rivojlanishi va investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda institutsional investorlar (investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari, pensiya fondlari va tijorat banklari) muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda ularning likvidlikni ta’minlash, risklarni diversifikatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Hozirgi holat, muammolar va amaliy takliflar asosida moliya bozori barqarorligini mustahkamlash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: institutsional investorlar, moliya bozori barqarorligi, xorijiy investitsiyalar, likvidlik, moliyaviy islohotlar

Moliya bozori barqarorligi iqtisodiy o‘sishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, u inflyatsiya va foiz stavkalarini nazorat qilish, likvidlikni ta’minlash va moliyaviy risklarni kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Institutsional investorlar uzoq muddatli resurslarni samarali taqsimlaydi, bozor chuqurligini oshiradi va volatillikni pasaytiradi. O‘zbekistonda moliya tizimi barqarorligi saqlanib qolmoqda: 2025 yilning birinchi yarmida bank tizimi kapital yetarliligi va likvidlik ko‘rsatkichlari minimal talablardan yuqoridir. Asosiy stavka 14% darajasida saqlanib, inflyatsiya 2025 yil oxirida 7,3% ga tushdi va 2026 yil uchun prognoz 6,5% ni tashkil etmoqda. Institutsional investorlarning faoliyatini rivojlantirish xorijiy investorlar uchun moliyaviy risklarni yanada kamaytiradi va bozor ishonchliligini oshiradi.

Institutsional investorlar professional boshqaruv orqali qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar va aksiyalar bozorida resurslarni samarali taqsimlaydi, xususiy va davlat sektorlari o‘rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Ularning faolligi moliya bozorining chuqurligini oshirib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilishga yordam beradi. 2025 yilda O‘zbekistonga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 33,5 mlrd AQSh dollarga yetdi, bu 2024 yilga nisbatan sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar 591,1 trln so‘mni tashkil etib, 10,5% ga o‘sdi193. Institutsional investorlar bazasini kengaytirish (masalan,

193 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Narzullayeva Xilola Abdukomilovna (2026). O‘zbekistonda moliya bozori barqarorligini ta’minlashda institutsional investorlar rolini oshirish orqali investitsiya muhitining jozibadorligini kuchaytirish. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/877

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

pensiya fondlari va sug‘urta kompaniyalarini rivojlantirish) orqali bu o‘sishni yanada barqarorlashtirish va 2030 yilga qadar yuqori o‘rta daromadli davlat maqomiga erishish mumkin.

O‘zbekistonda moliya bozori rivojlanmoqda, 2025 yil holatiga ko‘ra mamlakatimizda 36 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda, shundan 9 tasi to‘liq davlatga tegishli, 12 tasi xususiy (shu jumladan xorijiy kapital ishtirokidagi banklar)194. Davlat banklari aktivlarning 65% ini nazorat qiladi. Kapital bozorlari rivojlanishi uchun yangi choralar ko‘rilmoqda: ochiqroq oshkor talablar, xalqaro standartlarga moslashuv va tizimli risklarni nazorat qilish kuchaytirilmoqda.

Institutsional investorlar rolini kuchaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim bo‘lib hisoblanadi:

- huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish (xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish, transferlarni soddalashtirish);
- soliq imtiyozlari va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish;
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish (OECD, IFC, Franklin Templeton bilan birgalikda roudshoular va islohotlar). Institutsional investorlar rolini oshirish O‘zbekiston moliya bozori barqarorligini mustahkamlaydi, xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi va iqtisodiy o‘sishni (2025 yilda YaIM o‘sishi 7,7%) tezlashtiradi. Bugungi kunda mamlakatimizda bu sohada asosiy muammolar quydagilar hisoblanadi: investorlar bazasining cheklanganligi, byurokratik to‘siqlar, moliyaviy savodxonlikning pastligi va davlat dominantligi.

O‘zbekistonda moliya bozori barqarorligini ta’minlashda institutsional investorlar rolini oshirish orqali investitsiya muhitining jozibadorligini kuchaytirish uchun quydagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan investitsiya fondlari va sug‘urta kompaniyalari uchun soliq imtiyozlari joriy etish va aktivlarni diversifikatsiya qilishni rag‘batlantirish.

Ikkinchidan xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish.

Uchinchidan xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda kapital bozorlari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va xorijiy investorlar uchun roudshoular o‘tkazish.

Ushbu chora-tadbirlar 2026–2030 yillarda moliya bozori chuqurligini oshirib, barqaror investitsiya muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

194 https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124988/

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *2025 yilning birinchi yarmi bo‘yicha moliyaviy barqarorlik hisoboti*.
2. AQSh Davlat departamenti. *2025 yilgi investitsiya muhiti bo‘yicha hisobot: O‘zbekiston*.
3. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi. *O‘zbekiston: 2025 yilgi IV-modda missiyasi yakuniy xulosalari*.
4. PwC. (2025). *O‘zbekistonga investitsiya kiritish bo‘yicha qo‘llanma*. https://www.pwc.com/uz/en/assets/uzbekistan-investment-guide-2025.pdf
5. Ergasheva S. (2025). *O‘zbekiston moliya bozorini rivojlantirish tendensiyalari va uning barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari*. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/9590
6. ResearchGate. (2024). *O‘zbekistonda moliya bozorini modernizatsiya qilish va uning rivojlanish istiqbollari*.
7. Global Research Network. (2025). *O‘zbekiston fond bozorida institutsional rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari*.
8. OECD. (2025). *O‘zbekistonda barqaror investitsiya siyosatini isloh qilish bo‘yicha yo‘l xaritasi*.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti